

QISHLOQ HUDUDLARI AHOLI DAROMADLARINING TARKIBI, UNDAGI DEHQON VA TOMORQA XO‘JALIKLARI FAOLIYATI NATIJASIDAN KELADIGAN DAROMADING STATISTIK TAHLILI

Alimov Damirjon Odilovich

Toshkent davlat agrar universiteti Samarqand filiali Agrobiznes va logistika fakulteti
Iqtisodiyot (qishloq xo‘jaligida) ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich bakalavriati talabasi
E-mail: damirjonalimov824@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada mamlakt aholisining daromadlari va daromadlari tarkibi o‘rganilib tahlil qilingan. Tahlil asosida qishloq hududlari aholisining, dehqon va tomorqa xo‘jaliklari faoliyatini to‘g‘ri va samarali yuritishi natijasida o‘zlarining daromadlarini oshirishi mumkinligi statistik ma’lumotlarga asoslangan holda analiz qilingan. Shuningdek, mamlakatda bandlar sonini qishloq xo‘jaligi sohasida band bo‘lgan ishchilar soni nisbati olingan va mamlakat aholisining daromadlarini oshishida dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining sonini ko‘payishi va faoliyatining samaradorligini oshirish orqali mamlakatdagi qishloq hududlari aholisining daromadlari miqdori oshishi statistik ma’lumotlarga ko‘ra tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: daromad, ishsizlik, dehqon xo‘jaligi, qishloq xo‘jaligi, aholi, mahsulot, tannarx.

ABSTRACT

In this article, the structure of income and income of the country’s population is studied and analyzed. Based on the analysis, it was analyzed based on statistical data that the population of rural areas can increase their income as a result of proper and efficient management of the activities of farmers and households. Also, the ratio of the number of jobs in the country to the number of workers employed in the agricultural sector was obtained, and the increase in the income of the population of the country by increasing the number of farmers and households and increasing the efficiency of their activities was analyzed according to statistical data.

Keywords: income, unemployment, farming, agriculture, population, output, cost.

АННОТАЦИЯ

В данной статье изучена и проанализирована структура доходов и доходов населения страны. На основе анализа было проанализировано на основе статистических данных, что население сельской местности может увеличить свои доходы в результате правильного и эффективного управления деятельностью фермерских и домашних хозяйств. Также получено соотношение количества рабочих мест в стране к количеству работников, занятых в аграрном секторе, и проанализировано увеличение доходов населения страны за счет увеличения количества фермеров и домохозяйств и повышения эффективности их деятельности по статистическим данным.

Ключевые слова: доход, безработица, сельское хозяйство, сельское хозяйство, население, выпуск продукции, себестоимость.

KIRISH (INTRODUCTION)

O‘zbekiston Respublikasining Yalpi ichki mahsuloti 2022-yilda 74,2 milliard AQSH dollar yoki aholi jon boshiga 2100 AQSH dollarga yetdi. YaIMning real o‘sish darajasi 5,9% ni tashkil qildi. Ammo mamlakatda kam ta’milangan aholi ulushi 11,5 foizni tashkil etadi(Stat.uz). Bu tizimdagи ayrim kamchilik va xatolar mavjudligini ko‘rsatadi. Mamlakat qishloq hududlari aholisining daromadini oshirish orqali kambag‘allik darajasini qisqartirish asosiy reja sifatida ko‘zda tutilishi kerak.

Shunga mos ravishda YaIMning 35,8%i (300,3 trln so‘m) xizmatlar sohasida, 25,9%i (217,7 trln so‘m) sanoatda, 24,7%(207,6 trln so‘m) qishloq xo‘jaligida, 7,4%i (61,9 trln so‘m) sof soliqlar tushumida, 6,3%i(52,5 trln so‘m) qurilish sohasida shakllangan. Shuningdek kelgusi yilda qishloq xo‘jaligida kutilayotgan YaIMning real o‘sish hajmi 3,1%ni tashkil etmoqda

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mamlakatda qishloq xo‘jaligi resurslaridan samarali foydalangan holda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish hajmini oshirish va eng asosiysi ushbu sektorda faoliyat yuritayotganlarni daromadini oshirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Ingliz klassik siyosiy iqtisodiyotining asoschisi U.Petti(1623-1687) o‘zining asarlarida yer egalari daromadlarini umumlashtirib “renta” tushunchasi sifatida ifodalaydi. Dehqonchilikda yaratilgan mahsulot qiymati bilan uni ishlab chiqarishga ketgan xarajatlar o‘rtasidagi farqni renta deb atagan(ya’ni tuproq unumdarligiga bog‘liq bo‘lgan renta).

Fizokratlar iqtisodiy ta’limotlari maktabi asoschisi F.Kene(1694-1774) o‘zining nazariy merosida ta’kidlab o‘tgan fikriga ko‘ra sof mahsulotning manbai yer va unga sarflangan qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida band bo‘lgan kishilarning mehnatida

ya’ni boyikning ko‘payishi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarilishi bilan to‘laqonli bog‘liqligini aytgan.

A.Tyurgo(1727-1781) esa merkantalistlarni tanqid qilgan holda millatning boyligi deb, eng avvalo, yerni va undan olinadigan “sof daromad”ni hisoblagan(Tashmatov).

Yuqoridagi iqtisodiy ta’limotlar maktablarining namoyondalarini fikr va g‘oyalarini hozirgi zamonaviy iqtisodiyot qisman inkor qilmoqda. Ammo, ularning fikrlari to‘laqonli o‘z kuchini yo‘qotmagan.

M.Mahmudov dehqon xo‘jaliklarining daromadini oshirishni ularning ishlab chiqarish kuchlari salmog‘i orqali, ya’ni, ularning asosiy va aylanma vositalar bilan qay darajada ta’milanganligini va ularning daromadlari o‘zgarishi o‘rtasidagi munosabtni o‘rgangan.

S.Mehmonov dehqon va fermer xo‘jaliklari ishlab chiqarishini kengaytirish va diversifikatsiya qilishni rag‘batlantirish orqali ularning daromadini oshirishni o‘rgangan. Ya’ni bunga mamlakatda fermer va dehqon xo‘jaliklarini kengaytishni foizi past kreditlar va subsidiyalar berish yo‘li bilan erishish mumkinligini tadqiq etgan.

Ilmiy tadqiqot ishining maqsadidan kelib chiqgan holda avvalambor Respublika aholi daromadi holati va miqdori O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasining 2020-2021 yilgi ma’lumotlariga asoslanib o‘rganib chiqildi. Unga ko‘ra,

Aholining umumiyl daromadlari

Yillar	2020	2021
Aholining umumiyl daromadlari, mlrd. so‘m	415 085,00	521 307,60
O‘tgan yilga nisbatan real o‘sishi, foizda	100,5	113,3
Aholining jon boshiga umumiyl daromadlar, mimg so‘m	12 125,60	14 930,70
O‘tgan yilga nisbatan real o‘sishi, foizda	98,6	111,1

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasi

2020 yilda aholining umumiyl daromadlari 2019 yilga nisbatan real o‘sishi 0,5% ni tashkil etgan ammo, bu ko‘rsatkich 2021 yilga kelib o‘tgan yilga nisbatan mos ravishda 13,3 foizga o‘sganligini ko‘rish mumkin. Shuningdek, bu ko‘rsatkichni aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan umumiyl daromadlar hisobida ko‘radigan bo‘lsak, 2020 yilda aholi jon boshiga tushadigan daromad miqdori 2,4% ga kamayganligi 2021 yilda esa bu raqamlar o‘tgan yilga nisbatan 11,1% ga o‘sganligini ko‘rshimiz mumkin.

Xususan, aholi umumiy daromadlarining tarkibi ham tahlil qilindi. Ya’ni, aholining birlamchi daromadlari, qaysiki, ishlab chiqarishdan va mol-mulkdan olinadigan daromadlar hamda transfert daromadlari tasnifiga bo‘lindi, Unga ko‘ra,

Aholi daromadlari tarkibi, % da

Ko‘rsatkichlar nomi	2020	2021
Umumiy daromadlar - jami	100,00	100,00
Shu jumladan: Birlamchi daromadlar	75,4	73,6
Shundan: Ishlab olingan daromadlar	73,30	71,50
Mol-mulkdan olingan daromadlar	2,1	2,2
Transfertlardan daromadlar	24,6	26,4

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasi

aholi daromadlari tarkibida ishlab chiqarishdan olinadigan daromadning salmog‘i katta hisoblanib, ushbu faoliyatdan keladigan daromad qishloq hududlari aholisining daromadida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birgalikda 2020-2021 yilgi mamlakat YaIM idan qishloq xo‘jaligini ulushi mlrd so‘mda keltirilib, Respublika qishloq xo‘jaligi faoliyatini tashkil etuvchi 3ta subyektning umumiy qishloq xo‘jalik mahsulotlari qiymatini yaratishdagi ishtiroki hamda,

Xo‘jalik toifalari bo‘yicha qishloq xo‘jaligi mahsuloti

(amaldagi narxlarda, mlrd. so‘m)

Yillar	Barcha toifadagi xo‘jaliklar	Fermer xo‘jaliklari	Dehqon(shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklar	Qishloq xo‘jalik faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar
Qishloq xo‘jaligi mahsuloti(umumiy)				
2020	250 250,60	70 620,90	168 657,40	10 972,30
2021	303 415,50	88 761,50	198 719,40	15 934,60
Dehqonchilik mahsulotlari				
2020	123 858,80	64 472,80	52 370,90	7 015,50
2021	152 130,40	80 726,5	60 941,60	10 462,30
Chorvachilik mahsulotlari				
2020	126 391,80	6 148,10	116 286,50	3 957,20
2021	151 285,10	8 035,00	137 777,80	5 472,30

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasi

sektorning bo‘linuvchi ikki tarmog‘i qaysiki dehqonchilik chorvachilik sohalarida yaratilgan mahsulotlarning yalpi daromadi va undagi xo‘jaliklarning ulushi keltirilib o‘tilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR (RESULTS AND DISCUSSIONS)

Dunyoda mehnatga layoqatli aholi soni 3.32 milliard kishini tashkil etmoqda bu esa dunyo aholisining 40% ni qamrab oladi. Bu ko‘rsatkich 1991 yilning mosdavriga nisbatan 1.04 milliard kishiga ko‘paygan.

Yuqoridagi ko‘rsatkichkar respublika miqyosida tahlil qilinadigan bo‘lsa,

Yillar	2018	2019	2020	2021
Iqtisodiyotda jami bandlar soni	13 273,20	13 541,10	13 236,40	13 538,90
qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi	3 537,20	3 544,60	3 499,20	3 414,60
Sanoat	1 802,90	1 821,50	1 809,50	1 863,30
qurilish	1 205,50	1 324,60	1 305,60	1 350,80
Savdo	1 401,80	1 436,40	1 405,40	1 536,60
tashish va saqlash	645,20	646,10	610,50	654,20
yashash va ovqatlanish xizmatlari	301,90	315,30	302,80	341,10
axborot va aloqa	62,70	62,20	58,70	70,50
moliyaviy va sug‘urta faoliyati	73,50	75,80	72,50	70,40
ta’lim	1 111,70	1 134,40	1 158,20	1 220,50
sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish	604,00	616,70	669,50	650,80
san’at, ko‘ngil ochish va dam olish	65,60	66,00	67,00	70,20
boshqa faoliyat turlari	2 461,10	2 497,50	2 277,60	2 296,90

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasi

iqtisodiyotda jami bandlar umumiy aholining 38.3 foizini, ishsizlik darajasi esa 9.6% ni tashkil etmoqda. Jadvalda ko‘rish mumkin.

Jami band aholining 25.2%i qishloq o‘rmon va baliq xo‘jaligi tarmog‘ida band hisoblanadi. Bu esa mamlakat aholising qishloq xo‘jalik sohasidan oladigan daromadlarning turmush darajasi va farovonligiga uzviy ta’sir ko‘rsatishini ifodalaydi. Respublika ishchilarini band qilish bo‘yicha keyingi yetakchi sohalar sanoat(13.7), savdo (11.3), qurilish (10.0) salmoqli ko‘rsatkichlar bilan muhim o‘rin egallab turibdi.

XULOSA(CONCLUSION)

Qishloq xo‘jaligi O‘zbekiston Respublikasining YaIMining asosiy qismini tashkil etishi iqtisodiyotda qishloq xo‘jaligining o‘mi muhimliligini ko‘rib chiqildi, Shu asnoda, ushbu tarmoq xalq xo‘jaligining deyali baarcha sohalariga xom ashyo yetkazib

beradi va sanoatdan va boshqa tarmoqlardan ishlab chiqarishning hajmini kengaytirish maqsadida yoki modernizatsiya qilish uchun asosiy va aylanma vositalarni xaridini(almashinuvini) amalga oshiradi.

Birgina bandlilik ko'satkichiga nazar solinsa mamlakat ishchilarini eng katta qismini band qilgan soha bu qishloq xo'jaligi sohasi ekanligi namoyon bo'ldi. Ammo, tarmoqda ba'zi kamchiliklar mavjud. Masalan, dehqon(shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarning o'z faoliyatini rivojlantirish va kengaytirish uchun bilim ko'nikmalar yetishmasligi, faoliyatini "intensive" usulda kengaytirish uchun kreditlarni foizi balandligi tufayli kredit olmasliklari namoyon bo'ldi. Bu kabi muammolarni hokimiyat vakillari sektor rahbarlari sinchikovlik bilan o'rganishi kerak va tizimni tubdan isloh qilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Sh. Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston taraqqiyoti strategiyasi"
2. Adaxonov X. O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish va aholi daromadini oshirish. <http://pedagoglar.uz>
3. Sh. Shodmonov, U. G'afuruv "Iqtisodiyot nazariyasi". Toshkent- "Fan va texnologiya"-2005
4. Saidmurodov M. Qishloq xo'jaligida aholi daromadlarini oshirishda, tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari. Междуродная конференция академических наук. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6590455>
5. United Nations.Department of Economic and Social Affairs. Sustainable Development. (<https://sustainabledevelopment.un.org/content/documents/6754Technical%20report%20of%20the%20UNSC%20Bureau%20%28final%29.pdf>)
6. Uzakov K. Qashshoqlini kamaytirishda oilaviy bizesni roli. <http://ijpsss.iscience.uz/index.php/ijpsss>
7. Sh. Xolmo'minov "Mehnat bozori iqtisodiyoti". Toshkent-2021
8. Muratov S. et al. ECONOMIC ASSESSMENT OF FACTORS AFFECTING INCOME FROM THE ACTIVITIES OF HOUSEHOLD FARMS IN RURAL AREAS: A CASE OF SAMARKAND PROVINCE //Economic Science for Rural Development Conference Proceedings. – 2022. – №. 56.
9. Muratov S. et al. The Role of Innovations in the Activities of Tomorka Farms in Samarkand Region //American Journal of Agricultural Science, Engineering, and Technology. – 2022. – Т. 6. – №. 3. – С. 135-141.
10. Муратов Ш., Ҳасанов Ш., Пардаев Х. ҚИШЛОҚ АҲОЛИСИ ДАРОМАДЛАРИГА ШОКЛАРНИНГ ТАЪСИРИНИ ИҚТИСОДИЙ БАҲОЛАШ //Academic research in educational sciences. – 2022. – №. Conference. – С. 170-187.

11. Alimov D. O. QISHLOQ HUDUDLARIDA AHOLI DAROMADLARI HOLATI VA OSHIRISH ISTIQBOLLARI //Academic research in educational sciences. – 2022. – №. Conference. – C. 79-85.
12. Alimov D. O. BASED ON FARM ACTIVITY ANALYSIS INCOME STATE OF POPULATION IN RURAL AREAS //Academic research in educational sciences. – 2023. – T. 4. – №. SamTSAU Conference 1. – C. 442-445.
13. www.worldbank.com
14. www.statuz.uz